

SURXON TONGI

2024-yil
11-dekabr
(chorshanba)
50-son
(17 931)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxontongi

YANGI YILDA QANDAY ISHLAYMIZ?!

BUGUNNING GAPI

Shu bilan birga, ramziy ma'noda har bir yilga nom berilishi va yil davomida ayni nomdan kelib chiqib, qator islohotlar amalga oshirilishi an'ana tusini olganligi bejiz emas. Demak, yangi yilda ham bizni buyuk va zalvarli ishlar kutmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 18-20-noyabr kunlari Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida so'zlagan nutqlarida, shuningdek, "2025-yil — Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan ijro hokimiyati organlari rahbar kadrlari oldida turgan vazifalarni o'rganish bo'yicha Surxondaryoda 4 kunlik o'quv-amaliy seminarini boshlandi.

Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti majlislar zalida mazkur seminarining ochilish marosimi o'tkazildi. Unda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov, shuningdek, o'quv seminariga jalb qilingan oliy o'quv yurtlari rektorlari, professor-o'qituvchilar va tajribali mutaxassislar ishtirok etdi.

Viloyat rahbari ochilish marosimidagi nutqida Prezidentimiz tomonidan belgilab

berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash, hududda mahalliy davlat boshqaruvi va aholi bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda ushbu o'quv-amaliy seminar muhimligini ta'kidladi.

To'rt kun davomida o'tkaziladigan o'quv-amaliy seminarida shahar va tumanlar hokimlarining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari, tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlari hamda Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar ishtirok etmoqda.

IMKONIYAT



Aziz RAXIMOV,
Savdo-sanoat palatasi
viloyat hududiy
boshqarmasi boshlig'i

Shu nuqtayi nazardan bugun tadbirkorlikka qiziquvchi va ushbu sohada muvaffaqiyatga erishayotgan insonlar safi tobora kengayib borayotir. O'z navbatida, tadbirkorlarni har tomonlama, ayniqsa, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ko'maklashish, xalqaro bozorda o'z o'rni va brendiga ega bo'lishini qo'llab-quvvatlash muhim masalaga aylandi. Sababki, tadbirkor ko'paydi, raqobat va sifat borasida ham ishbiarmonlarning tajribasi ortdi. Bu esa ichki bozor bilan bir qatorda jahon bozoriga intiluvchi, faoliyatini yanada kengaytirib, hudud iqtisodiy hayotida faol va fuqarolarni ish bilan band etayotgan tadbirkorlar sinfining shakllanishiga yo'l ochdi.

Hamkor tashkilotlar bilan bir qatorda Savdo-sanoat palatasi Surxondaryo hududiy boshqarmasi ham tadbirkorlar manfaatini himoya qilish, ularga qonuniy tartibda yordam ko'rsatish, qolaversa, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ko'maklashish borasida bir qator ishlarni amalga oshirib kelayotir. Birgina tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatiga ko'maklashish, eksport-import masalalarida ko'rsatilayotgan yordamlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, joriy yilning o'tgan davri mobaynida eksport qiluvchi korxonalar, jumladan, Termiz tumanida faoliyat yuritayotgan "Gold Dried Fruits" MCHJ tomonidan meva-sabzavot mahsulotlarini Afg'oniston davlatiga, Termiz tumanida faoliyat yuritayotgan "Olis Osmon" xususiy korxonasida ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarini Tojikiston davlatiga, Angor tumanida faoliyat yuritayotgan "Tanovar Surxon" MCHJ tomonidan meva-sabzavot mahsulotlarini Rossiya davlatiga, Jarqo'rg'on tumanida faoliyat yuritayotgan "Surxontex" MCHJ tomonidan to'qimachilik mahsulotlarini Pokiston davlatiga, Jarqo'rg'on tumanida faoliyat yuritayotgan "NORTEX STYLE" MCHJ tomonidan to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilishda doimiy ravishda ko'maklashib kelmoqda.

Viloyatimizdan o'z mahsulotlarini Afg'oniston bozoriga eksport qilish istagida bo'lgan mahalliy tadbirkorlik subyektlarining tijorat takliflari, shuningdek, "Uztrade" AJ kompaniyasi xorijdagi savdo uylari orqali xorijga eksport qilish istagida bo'lgan mahalliy

Shiddat bilan o'zgarib, har tomonlama rivojlanib borayotgan bir davrda yashayotgan ekanmiz, har birimizning tadbirkor, ishbilarmon va uddaburon bo'lishimizni davrning, qolaversa, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zi talab qilmoqda.

PALATA KO'MAKKA SHAY

tadbirkorlik subyektlarining tijorat takliflari tayyorlab berilmoqda.

Viloyatda eksport salohiyatini oshirish borasida mahalliy eksportyorlarning

faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida Sariosiyo tumanida faoliyat yuritayotgan "Uzagrolider" MCHJga, Qumqo'rg'on tumanida faoliyat yuritayotgan "Totli mevalar bog'dorchilik", Sariosiyo tumanida faoliyat yuritayotgan "Sariosiyo meva-sabzavot" hamda Sherobod tumanida faoliyat yuritayotgan "Sherobod anor impeks" MCHJga eksport bor mahsulotlarni xorijiy bozorlarga yetkazib berishda mahalliy korxonalar tomonidan tegishligi bo'yicha Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan tushuntirishlar berilib, jahonda tan olingan "Global Gap" xalqaro sertifikatini olish ishlarida ko'maklashilganini ham alohida ta'kidlash joiz.

Joylarda bo'lib o'tayotgan hududiy tarmoqlararo sanoat ko'rgazmalari va kooperatsion birjalari doirasida Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi ko'magida tadbirkorlarga onlayn portal "cooperation.uz" orqali shartnomalarning imzolashida ko'maklashilmoqda.

"Termiz xalqaro savdo markazi" erkin savdo zonasida bo'lib o'tgan "Qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, dorivor o'simliklarni qayta ishlash sohalari va oziq-ovqat sanoati" mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini ishtirokidagi "Hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi" da sanoat korxonalarining o'z mahsulotlari bilan ishtirok etishlarida amaliy yordam berildi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun Savdo-sanoat palatasi ishbiarmon doira vakillari faoliyatiga ko'maklashish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda huquq va manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etib, hudud iqtisodiy rivojida munosib hissa qo'shib kelmoqda va Palata vakolat hamda imtiyozlari esa ishbiarmonlarga har tomonlama qo'l kelmoqda.

Yangi yil ostonasida turibmiz. Yangi-yangi rejalarni ko'zlab, o'z oldimizga katta va buyuk maqsadlarni qo'yayotirmiz. Bu maqsadlar yurt kelajagi, vatan taqdiri bilan bog'lansa, yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

300 METRLIK KO'PRIK ISHGA TUSHIRILDI



Prezidentimizning 2018-yil 29-martdagi "2018-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida avtomobil yo'llari ko'priklarini, yo'l o'tkazgichlar va boshqa sun'iy inshootlarni qurish,

rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida bunyod etilgan yirik yo'l o'tkazgich avtomobil yo'llari qo'mitasi buyurtmasi asosida qad rostladi. Foydalanishga topshirilgan zamonaviy

inshootning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov amalga oshirilayotgan bunday ulug'vor ishlar yurtimizning chekka hududlarida ham inson qadriini ulug'lab, aholining munosib turmush kechirishi uchun obod, osuda va farovon hayotni

Denov tumanidagi "Namozgoh" mahallasi hududidan o'tgan davlat ahamiyatidagi 4R108 "Denov aylanma yo'li" avtomobil yo'lini xalqaro ahamiyatdagi M41 "Bishkek - Dushanbe - Termiz" avtomobil yo'li bilan bog'lovchi temir yo'l ustidan o'tgan yangi ko'priklarni foydalanishga topshirildi.

ta'minlashga xizmat qilayotganini qayd etib o'tdi.

Qiyamati 81,5 milliard so'mlik ko'priknin uzunligi 300 metr bo'lib, tirkama devor uzunligi 100 metr, ikki tomonlama yo'l uzunligi 1200 metr, kengligi esa 21 metrni tashkil etadi. Murakkab inshootni qurib, ishga tushurish uchun "Ko'prikkurilish" aksiyadorlik jamiyati bunyodkorlari 6 ming 240 metr-kub beton, 35 ming metr-kub yer ishlarini amalga oshirdi. 30 dona temir-beton ustun, to'rt turdagi 156 dona temir-beton to'sin o'rnatildi.

Zamonaviy ko'priknin mintaqaning transport infratuzilmasini rivojlantirib, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydi va yo'ldagi uzoq yillik tirbandlikka chek qo'yadi.

Tantanali marosimda nuroniylar ko'priknin yurt obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida uzoq yillar xizmat qilishini tilab, duoga qo'l ochdilar va yaratilgan bu quylaylikdan quvonishdi.

"YASHIL MAKON" BILAN KELAJAK SARI

Azaldan ma'lumki, har bir faslning o'z husn-u tarovati va afzalliklari bor. Bahor nafarmon gullari, yoz va kuz larzon mevalari, qish esa muzgaldaklari, oppoq musaffo qorlari bilan tabiatga o'zgacha chiroy bag'ishlaydi.

TABIAT VA BIZ

Dehqonlar ta'biri bilan aytganda, fasllar almashinuvi arafasida kelgusi yil hosili uchun taraddud ko'rildi; yerlarni shudgorlash, ekin ekish, ko'chat o'tqazish, dala chetlariga ishlov berish kabi bir qator tadbirlar olib boriladi. Ana shunday mavsumiy tadbirlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish uchun ko'chat ekishga alohida e'tibor qaratilayotganligi ham bejiz emas. Hozir o'lkamizda qish fasli bo'lishiga qaramasdan, butun mamlakat miqyosida ko'chat ekish mavsumi davom etmoqda.

Kuni kecha viloyat hokimligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hamkorligida jurnalist va blogerlar ishtirokida press-tur tashkil etildi. Press-tur ishtirokchilari "Almata — Bishkek — Toshkent — Termiz" yo'nalishidagi M-39 xalqaro avtomobil yo'lining Termiz, Angor, Muzrabot hamda Sherobod

tumanlari hududida amalga oshirilayotgan ko'chat ekish jarayonlari hamda "Surxon" davlat qo'riqxonasida ayni paytda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdi.

— Ushbu loyiha viloyatdagi 79 ta, Angor, Muzrabot va Sherobod tumanlari hududidagi 126 ta korxonaga va tashkilot tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Kuz fasli mobaynida ajartirilgan yer maydoni begona o'tlardan tozalaniib, yer tayyorlash ishlari amalga oshirildi. Tuproq ishlari uchun har kuni yuzdan ortiq texnika va 200 ga yaqin ishchi kuchi jalb qilinib, 10 ming kub unumdor tuproq olib kelindi. Mutaxassislarning tavsiyasiga ko'ra, iqlim sharoitiga mos keladigan ko'chat turlari tanlab olinib, qanday ekish lozimligi bo'yicha tavsiyalar berilgan edi. Shundan kelib chiqib, jami 295 ming 200 dona: xila katalpa, eldor qarag'ayi, yapon tuti va chinor

kabi daraxt ko'chatlari ekish ishlari olib borilmoqda, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi viloyat boshqarmasi boshlig'i B. Urunov.

Ushbu loyiha amalga oshirish uchun barcha shart-sharoit yaratilmoqda. Jumladan, "Yo'lloyiha" tashkiloti tomonidan Termiz tumanidagi At-Termiziy ziyoratgohidan Sherobod tumanidagi Iso at-Termiziy qadamjosisigacha bo'lgan yo'lning 2 tomonidagi muhofaza hududiga ko'chatlarni ekish va sug'orish tizimlarini joylashtirish maqsadida 32 ta suv havzasi qazilib, nasoslar o'rnatilmoqda. Shuningdek, bosqichma-bosqich 132 kilometr uzunlikda polietilen quvurlari yotqiziladi. Ko'chatlar yomg'irlatib sug'oriladi. Agar ushbu ko'chatlar o'z vaqtida parvarishlanib, sug'orib borilsa, yaqin yillar ichida bu go'shalar tanib bo'lmas darajada go'zal maskanlarga aylanishi hech gap emas.

Kunning ikkinchi yarmida ishtirokchilar "Surxon" davlat qo'riqxonasidagi bioxilma-xillikni ta'minlash, hududlarda yashil maydonlarni kengaytirish, "Yashil belbog'"larni tashkil etish borasidagi ishlar bilan tanishishdi.

"Surxon" davlat qo'riqxonasining Shalqon bo'limi jo'g'rofiy jihatdan qoq markazda joylashgan bo'lib, tog'lar asosan Zarafshon archazorlari bilan qoplangan va Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh qismida balandligi 1000 metrgacha keladigan tik qoyalari ajoyib ko'rinish hosil qiladi. Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yon bag'irlarida joylashgan "Surxon" davlat qo'riqxonasi dengiz sathidan 850 metrdan 3137 metrgacha balandlikdagi hududni o'z ichiga oladi. Qo'riqxonada hududida 807 tur o'simlik uchraydi, shundan 47 tasi O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan.

Qo'riqxonada hozirgacha 26 tur sutemizuvchi, 137 tur qush, 24 tur sudralib yuruvchi, 2 tur suvda va quruqlikda yashovchi, 5 tur baliq, jami 194 tur hayvonot dunyosi vakillari uchraydi. Shundan 25 turi O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan. Qo'riqxonadagi muhofazaga olingan hayvonlardan 18 tur hayvon Xalqaro TMQI "Qizil kitob"iga kiritilgan bo'lib, mazkur noyob turlardan morxo'r yoki burama shoxli echki, Buxoro tog' qo'yi muhim ahamiyatga ega bo'lgan hayvonlar hisoblanadi.

Viloyatimiz bo'yab olib borilayotgan xayrli tadbirlar jurnalist va blogerlarda iliq taassurot qoldirdi.

X. TOG'AYMURODOV



Anvar NORMAMATOV,
Qumqo'rg'on tumani hokimi

MARRA YUKSAK, TADORIK PUXTA, ISHLAR IZCHIL

REJALAR ORTIG'I BILAN BAJARILDI

Bugun qay soha yoki tizimda faoliyat yuritmaylik, tadbiri bo'lmoliq davr talabiga aylandi. Aholining ishsiz qatlamini ham ayni aqidaga ko'ra qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olib, tadbirkorlikka jalb etishga bel bog'ladi. Sa'y-harakatlarimiz esa natija berayotir. Hattoki, faoliyatsiz va "nol" hajmda ishlagan korxonalariga ko'rsatilgan amaliy ko'mak natijasida 78 ta tadbirkorlik subyekti faoliyatini tiklanishiga erishdik.

Qumqo'rg'on tumanida 2024-yil yanvar-avgust oylari davomida 2 099 nafar ishsiz fuqaro doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. Yanvar-sentyabr oylarida tumandagi bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirish rejasini 1 654 nafarni tashkil qilib, reja nisbatan ishga joylashganlar 123 foizni tashkil etadi. Kasb-hunarga o'qitishga yuborilganlar 2 203 nafar, yanvar-sentyabr oylaridagi reja 445 nafar, ya'ni 126 foizni tashkil etadi, haq to'lanadigan jamoat ishiga jalb qilinganlar 781 nafar bo'lib, yanvar-sentyabr oylaridagi reja 695 taga nisbatan 109 foizni, ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar 14 nafarni tashkil etgan. Har yarim yillikda amalga oshiriladigan asosiy vazifalarimizni belgilab olganimiz ortidan tumanda 17 706 nafar aholi bandligi ta'minlandi. Xususan, investitsiya loyihalari hisobiga 952 nafar, xizmat ko'rsatish sohasida 3 965 nafar, qishloq xo'jaligida 12 541 nafar, qurilishda 248 nafar, jami 5 417 nafar aholi biznesga jalb qilinadi.

"Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida 8 ta namunal loyihani amalga oshirish hisobiga 420 nafar aholi yuqori daromadli ish bilan band bo'ladi. Kasbga tayyorlash markazlarida 436 nafar ishsiz fuqaro, shu jumladan, 28 nafar migrantlar daromadli sohalar bo'yicha kasb-hunarga o'qitiladi. "Uychi tumani tajribasi" bo'yicha tijorat banklari mijozlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal etgan holda 49,9 ming nafar aholi bandligini ta'minlashni maqsad qilganmiz.

700 NAFAR ISH O'RINLARINI "SOYA" DAN CHIQARILADI

Maqsadimiz aholi farovonligiga erishish, turmush sharoitini yaxshilash ekan, bunda yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan hamda muvaffaqiyatga erishgan tajribalarni qo'llash samara berishini yaxshi bilamiz. Aholi bandligini ta'minlash borasida G'ijduvon tumani tajribasini qo'lladik. Xotin-qizlarning tikish-bichishni udda qila olishlari esa qo'l keldi. Har bir mahallada vertikal sanoat markazlarini tashkil etish hamda mahalladagi tadbirkor va kasanachilarni ushbu markazlarga jalb etgan holda 700 nafar ish o'rinlarini "soya" dan chiqarish ishlari boshlab yuborilgan. Bu bilan kifoyalanmay, Zarbdor tumani tajribasini qo'llab, tumanda 5-7 ta drayver sohalarni rivojlantirish va katta loyihalarni sanoat zonalaridagi bo'sh joylarga joylashtirish orqali 400 nafar ish o'rinlarini yaratishni ko'zlaganmiz.

Har bir hududning rivojlanishini iqtisodiy omillar — sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish hajmining ulushi belgilab beradi. Albatta, bunda mavjud imkoniyatlar, shart-sharoitlar, aholining qiziqish va talablari, ehtiyojlari ham inobatga olinadi. Shu ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, Qumqo'rg'on tumanida joriy yilning o'tgan davri mobaynida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishi kuzatilgan har bir qumqo'rg'onlikning birdam mehnatlari samarasidir. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 104,6 foizga, pudrat ishlari hajmi 107,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 104,7 foizga, chakana savdo aylanmasi 113,7 foizga, xizmatlar hajmi esa 110 foizga o'sgani fikrlarimizni dalillaydi.

PROGNOZLAR MAQTANISHGA ARZIGULIK

Investitsiyalarni jalb qilish va loyihalar bo'yicha ishlarni rivojlantirish hududning-da iqtisodiy jihatdan yuqori pog'onalarni egallashiga xizmat qiladi. Qumqo'rg'on tumanida 2024-yilga mo'ljallangan hududiy investitsiya dasturiga muvofiq, qiymati 738,7 milliard so'mlik 25 ta loyiha ishga tushirilib, 1 097 ta yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan bo'lib, amalda qiymati 18,9 milliard so'mlik 28 ta hududiy va qo'shimcha loyihalar ishga tushirilib, 178 ta ish o'rinlari yaratilgan.

Misol uchun, "NODIRJON NURCHI SOHIB" MCHJ tomonidan umumiy qiymati 2,4 milliard so'mlik tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish natijasida 51 ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishildi. Joriy yil davomida tumanda 30 million AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan. "QUMTEX INVEST" MCHJ tomonidan "Sun'iy va ingichka paxta tolasidan aralashmal ip-yigiruv, mato to'quv hamda pardozlash" loyihasi uchun 29,4 million AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit mablag'lar o'zlashtirildi.

Eksport prognozlarini ham maqtanishga arzigulik. Birgina o'tib borayotgan ushbu yilning o'zida tumanda jami 16,8 million AQSH dollarilik mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, reja 126 foizga bajarilgan. Bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 217 foizga ortganini ko'rsatadi.

TA'LIM SUSTKASHLIKNI KECHIRMAYDI

Qaysidir sohada erishgan yutuqlarimiz boshqa yo'nalishlarda ham ana shunday harakat qilishimizni talab etadi. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi sustkashlik, e'tiborsizlikni kechirib bo'lmaydi. Sohada munosib shart-sharoit yaratilishiga yoshlarning o'qishga, o'rganishga qiziqishi ortadi, kelajagiga befarq bo'lmaydi. Ayni jihatlarni hisobga olib, Qumqo'rg'on tumanidagi 21-, 38-, 70-, 5-maktablarining rekonstruksiya qilinishi uchun mablag' ajratilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bolajonlarning qamrovini oshirish maqsadida davlat va xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurishni, mavjudlarini rekonstruksiya va qayta ta'mirlash maqsadida zarur mablag'lar ajratilgan.

Ta'lim kabi boshqa sohalar ham doimiy e'tibor talab etadi. Masalan, tibbiyot sohasida zarur bilim va malaka egallanmasa, mutaxassis doimiy patalogiyasi o'zgarib borayotgan oddiy shamollashni-da davolay olmay qoladi. Shu jumladan, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalarisiz ham sohani tugall tasavvur etib bo'lmayligini hayotiy tajribalar ko'rsatib turibdi. Tumandagi 33-son oilaviy poliklinikasining Paxtaobod filialida zaruriy sharoitlarni yaratish maqsadida rekonstruksiya qilindi. Tibbiyot muassasasidan uzoq masofada joylashgan 17 ta mahallaga to'liq jihozlangan konteynerlar

o'rnatilib, mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi.

SUV TA'MINOTI YAXSHILANIB, YO'LLAR ASFALTLANDI

Shuningdek, "Nurli diyori" mahallasi hududidan oqib o'tuvchi Bandixonsoy selgasining yemirilgan o'ng qirg'og'ining 850 metr qismini sel suvlaridan muhofaza qilish uchun 2,5 milliard so'm ajratilgan. Tumanda joylashgan 4K593 "Qumqo'rg'on sh. — Kakaydi q. — Lalmikor q." avtomobil yo'lining 1- va 2-kilometr qismlari oralig'idagi ko'priklar ham rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birgalikda, tumanda jamoatchilik fikri asosida 17,08 milliard so'mlik 13 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, 2 ta maktabda va bitta muruvvat uyini ta'mirlash ishlari, 2 ta ichimlik suv ta'minotini yaxshilash, bitta kasb-hunar maktabiga texnikalar xarid qilish hamda 16,2 kilometr yo'llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Qumqo'rg'onliklarning asosiy daromadi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan. Shunday ekan, sohada ilg'or tajribalarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mo'ljol hosi va daromad olish manbai bo'lib xizmat qiladi. Yer maydonlarimiz birday suv bilan ta'minlanmagan, bu ekin-tikin qilishga to'siq bo'lmayligi uchun ishbilarmon fermer va dehqonlarimiz suv to'g'ri texnologiyalardan keng foydalanib, qaqroq yerdan ham hosil olishayotir.

Tumanda jami 271 gektar paxta va g'alla maydonlarida suv to'g'ri texnologiyalar joriy qilingan. Shundan 233 gektari tomchilatib sug'orish, 38 gektari yomg'irilatib sug'orishni tashkil qiladi. Shuningdek, suv yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida ichki ariqlangan 78 kilometr qismi betonlandi.

IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANSAK, TURIZM RIVOJLANADI

Qumqo'rg'on tumanida ham turizm sohasini rivojlantirishda imkoniyatlar yetarlicha. Bu imkoniyatlardan unumli foydalansak, kelgusida tashrif buyuradigan turistlar sonini yanada oshirishga hissa qo'shgan bo'lamiz. Qumqo'rg'on tumanida ichki turizmni rivojlantirish va tuman aholisining mamlakatimizning diqqatga sazovor joylariga sayohat qilishlarini tashkillashtirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tashkilot va korxonalarida faoliyat olib borayotgan xodimlar va umumta'lim maktablari o'quvchi va o'qituvchilarining tumanimiz bo'yab sayohati tashkillashtirilgan bo'lsa, tumanga 2 800 nafar xorijiy turistlar tashrif kuzatilgan. Holbuki, mehmonlarni kutib olish, marshrutlar tashkil etish, xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Xullas, kelgusi 5 yilda marrani katta olib, barcha sohalarida ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishish orqali o'zgarishlar epkinining har bir mahalla, qishloq va xonadonlarga yetib borishini ta'minlashga bor kuch va bilimimizni sarf etamiz.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlari aholining farovonligi uchun xizmat qilayotir. Obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari ga qaratilgan e'tibor ham yuqori. Bu boradagi amaliy ishlar natijasida o'laraq davlat rahbarining juda muhim va qadriyatlarimizga hamohang chorlovi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Sho'rchi tumanida ham kuzgi ko'chat ekish ishlari davom etmoqda. Kech kuzda unutib qoldirilgan cho'ponning tayog'i bahorgacha ildiz otib ketgani haqidagi gurgunlar aslida oddiy gap emas. Tuprog'imiz zarligi, zamin bilan uyg'unlashib ketganligimizning bir ifodasi bu.



Akbarali ISHMURZOYEV,
Sho'rchi tumani hokimi

ISLOHOTLAR AMALDA: ISH, SAMARA VA NATIJADORLIK

"GULISTON" "YASHIL MAHALLA" GA AYLANDI

Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi boshlanganiga uch yil bo'ldi. Davlat rahbarining bu tashabbusiga yetti yoshdan yetmish yoshgacha — barcha esh, hammaslak. Sho'rchi tumanida ham dastur doirasida ko'chat ekish ishlari baravj. Loyiha doirasida kuzgi mavsum uchun 421 ming dona ko'chat ekish rejalashtirilgan. Tuman hududini obodonlashtirish va dastur doirasida shu kungacha 200 mingdan ziyod ko'chatlar ekildi. Shu bilan bir qatorda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi "Yashil mahalla" sifatida Sho'rchi tumanidagi "Guliston" mahallasi tanlab olingan edi. Ushbu mahalladagi aholi tomorqalariga limon va uzum ko'chatlarini ekish ishlari amalga oshirilmoqda. Mahalladagi fuqarolar tomorqasiga limon va uzum ko'chatlari ekilmoqda. Mehr bilan ekilgan limon va uzum ko'chatlari e'tibor bilan parvarish qilinsa, albatta, mo'l hosil olish imkonini beradi.

XALQNI ROZI QILISH — BOSH MAQSADIMIZ

O'tgan davr mobaynida butun mamlakatimizda bo'lgani kabi Sho'rchi tumanimizda ham juda ko'plab yutuqlarga, yuqori ko'rsatkich va marralarga erishilib, barcha sohalarida yuksak rivojlanish jarayonlari kechmoqda. Jumladan, shog'ri yetti yilda tumanda tadbirkorlar soni 1,8 barobarga, sanoat mahsulotlari hajmi 3,9 barobarga, xizmat ko'rsatish 4,6 barobarga oshdi. Shu bilan birga uzoq yillardan buyon to'planib qolgan muammolarni hal qilish va albatta, xalqimizning yaxshi va farovon yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish asosiy vazifalarimizdan. Shu bois Sho'rchi tumanini yanada taraqqiy ettirish, aholi farovonligini oshirish, tumanimizni obod, go'zal va farovon maskanga aylantirish, eng asosiy, xalqni rozi qilish birlamchi maqsadimizga aylandi. Bu maqsadlarga erishish yo'lida iqtisodiyotni rivojlantirish borasida marrani juda katta oldik. Jumladan, keyingi 5 yilda sanoat ishlab chiqarish hajmini 2,3 trillion so'mga yoki 2,7 barobarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini 2,6 trillion so'mga yoki 1,2 barobarga, xizmatlar hajmini 4,4 trillion so'mga yoki 5,3 barobarga yetkaziladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmida o'sishni ta'minlashda har bir sanoat tarmog'iga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish va yangi korxonalarni ishga tushirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga 2,5 barobarga oshiramiz. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2500 tadan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etish borasida chora-tadbirlar rejasini tuzib olganmiz, bu borada samarali ishlarni amalga oshirishni boshladik.

266 TA YANGI TADBIRKORLIK SUBYEKTI TASHKIL ETILDI

Tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va uning daromadini oshirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bu borada davlatimiz, hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotni barqarorlashtirish, biznes vakillarini qo'llab-quvvatlash

bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilayotir. Joriy yilning o'tgan vaqti davomida 266 ta yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Faoliyatsiz va "nol" hajmda ishlagan korxonalariga ko'rsatilgan yordamlar natijasida 95 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyati tiklanishiga erishildi. Tijorat banklari tomonidan 242 ta tadbirkoriga 19,701 milliard so'm kredit ajratilgan. Shu bilan bir qatorda, hokim yordamchilari tomonidan kreditlarni ajratilishi evaziga 455 ta arizaga skoring natijalariga ko'ra ijobiy xulosa berilgan.

Hududiy Investitsiya dasturi doirasida loyiha umumiy qiymati 584,5 milliard so'mlik, shundan o'z mablag'lari hisobidan 233,7 milliard so'mlik va tijorat banklari kreditlari hisobidan 30,9 milliard so'mlik hamda xorijiy investitsiya o'zlashtirish hisobidan 25 million AQSH dollarilik jami 20 ta loyiha shakllantirilib, ushbu loyihalarning ishga tushishi natijasida 922 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Xususan, "Sho'rchi Sevimli Supermarket" oilaviy korxonasi tomonidan zamonaviy savdo majmuasining tashkil etilishi natijasida 55 yangi ish o'ri yaratildi. "Limon Agro Best Trade" MCHJning umumiy o'qitilish nuqtasida 10 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. Poyabzal ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Azizbek Sho'rchi" xususiy korxonasi tashkil etilib, 6 ta ish o'ri yaratildi. Bundan tashqari, umumiy qiymati 14,8 milliard so'mlik 17 ta qo'shimcha loyiha ishga tushirilishi ortida 66 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Tumanda 2024-yilda 50 million AQSH dollarilik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish reja qilib belgilangan. Shundan yanvar-iyun oylarida tumanda 25,3 million AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish belgilangan. Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish 2-chorak yakuni bilan jami 25,4 million AQSH dollari miqdorida bo'lib, reja nisbatan 100,3 foizga bajarildi. O'tgan yilga nisbatan 338,6 foizni tashkil etdi. Joriy yilda tuman bo'yicha jami 15,6 million AQSH dollarilik eksport rejasini belgilangan bo'lib, joriy yil yanvar-iyun holatiga 7,4 million AQSH dollarilik eksport amalga oshirilib, reja 115 foizga bajarilgan.

Tumanimizdagi 20 ta mahalla hududidagi 24 ta obyektga loyiha qiymati 19 milliard 210 million so'mlik, jami 135,3 kilometr ichimlik suv tarmoqlari, 22 dona yangidan suv inshooti qurilib, to'liq foydalanishga topshirildi. 2024-yilning 1-choragida "Open budget" hisobidan "Oynako'l" mahallasiga 3 dona suv minorasi, 2 dona suv qudug'i va 15 kilometr dan ortiq suv quvurlari yangidan tortilib foydalanishga topshirildi. Hozirgi kunda loyihaning smeta hujjatlari tayyorlanib, tender savdosiga qo'yildi. "To'palang ichimlik suvi" loyihasi doirasida 2024-2025-yillar davomida tumanning 10 ta mahallasidagi 76 mingga yaqin aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi. Hozirgi kunda "Navro'z", "Ko'klam", "Xayrabad", "Bo'ston", Ibn Sino, A.Navoiy, "Bobotog", Bobur mahallalarida "To'palang ichimlik suvi" loyihasi doirasida 3 814 ta xonadonga toza ichimlik suvi yetib bordi. Shuningdek, tumanda elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha 2024-yilda elektr tarmoqlarini mukammal ta'mirlash rejasini

144,2 kilometr bo'lib, hozirgi kunda 75,2 kilometr qismi mukammal ta'mirlandi. Transformator punktlarini ta'mirlash rejasini 34 dona bo'lib, hozirgi kunda 20 dona transformator punktlari mukammal ta'mirlandi. Xususan, tumandagi "Oliyhimmat", "Baxshetepa-1", "Qora ariq", "Oqotumshuq" mahalla fuqarolar yig'inlarida 282,8 million so'mlik quvvati 250 kVA bo'lgan 3 dona hamda 160 kVA bo'lgan 1 dona jami 4 dona transformator o'rnatildi. Bundan tashqari, "Baxshetepa-1", "Do'stlik", "Kakan", "Elbayon", "Oqotumshuq", "Oliyhimmat", "Guliston" va "Kushon" mahallari hududida 220 million so'mlik 232 dona temir-beton ustunlar o'rnatildi. Albatta, bu ishlarning barchasi fuqarolarimizning baxtli va farovon yashashi uchun xizmat qilmoqda.

QISHLOQ XO'JALIGIDA YANGI BOSQICH...

Aholi bandligini ta'minlash borasida ham ishlarni izchil davom ettirib, tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish va "Kambag'allikdan farovonlik sari" loyihasi doirasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xorijda ishlab istigadiga bo'lgan fuqarolar kasbga va xorijiy tillarga o'qitiladi hamda ularni Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarga yuqori daromad oladigan ishlarga yuboriladi. Tumanda investitsion muhitni yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilib, mavjud imkoniyat va zaxiralardan samarali foydalanib, yangi quvvatlarini ishga tushirish va eksport hajmini oshirishga qaratamiz. Xususan, umumiy qiymati 440 million AQSH dollariga teng bo'lgan 310 ta yangi investitsion loyihalarni ishga tushirish hisobiga 8350 nafar yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Tumandagi "Olatemir" mahallasida 700 dan ortiq xonadon mavjud. Ularning 40 ga yaqinida issiqxona qurib, qo'shimcha daromad oloyotgan oilalar istiqomat qiladi. Limon, mandarin parvarishlab, yaxshigina daromad topishadi. Astoydil mehnat qilib, yomg'iridan unumli foydalanayotgan oilalarning ro'zg'ori to'kin, xonadoni obod bo'layotir. Hududlarning dehqonchilikda o'z yo'nalishlari paydo bo'lmoqda.

Hammamizga ma'lumki, suv resurslari cheklangan bo'lib, uni isrof qilmasdan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Tumandagi 47 ta nasos stansiyalari modernizatsiya qilinadi va 2,3 ming gektar maydonining suv ta'minoti yaxshilanishi bilan birgalikda 420 gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritiladi. Kelgusi 5 yilda 4,5 ming gektar maydonda suv to'g'ri texnologiyalar joriy qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, mas'uliyat bilan yondashgan holda tumanimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalqni rozi qilish bo'yicha vijdonan mehnat qilib, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va daromadlarini oshirish borasida ko'zlangan maqsadlarga, albatta, erishamiz.



Bahodir ABDURAYIMOV,
Oltinsoy tuman hokimining
birinchi o'rinbosari

“840 TA YANGI ISH O‘RINLARI YARATILADI”

Har bir kunimiz yangilanishlar, yuksalish, rivojlanish, obodlik va bunyodkorliklarga boy tarzda o‘tayotir.

Bu jarayonlarning yuzaga chiqishida bunyodkor, hamjihat, tant xalqimizning mehnati, tafakkuri mujassam ekanligini va ana shu yuksalishlarda har bir fuqaroning ham munosib ulushi borligini e'tirof etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yakuniga yetib borayotgan yil biz oltinsoyliklar uchun samarali va xosiyatli yil bo'ldi, deb aytish uchun to'liq asoslarimiz bor. Kundan kunga rivojlanib, jahon tanitilgan O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va oqilona siyosat samaradorligi — xalqimiz turmush tarzini yangi bosqichga ko'tarish, aholini ijtimoiy himoya qilish, tinchlik-totuvlik, mustaqillikni asrab-avaylash, mislsiz bunyodkorlik ishlarida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, barcha jabhalarning rivoj topishida Oltinsoy tumanining korxonasi, tashkilot, idora, fermer dehqonlari va mehnatsevar aholining yuqori natijalarni qo'lga kiritayotganligi, mustaqil yurtemiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotganligi har birimizning ko'nglimizni tog'dek yuksaltiradi.

O'tgan vaqt mobaynida Oltinsoy tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga to'xtalsak, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 108,7 foizga, pudrat ishlari 104,6 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 109,1 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 111,6 foizga o'sdi. 1273 ta yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. "Nol" hajmda ishlagan 18 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyati tiklanishiga erishildi.

"Sayxunobod tajribasi" asosida tumandagi 54 ta mahallada 830 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 1 860 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Tumanda jami 18 445 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Qonuniy migratsiya orqali 45 nafar fuqaro chet elga shartnoma asosida ishga jo'natildi. Migratsiyadan qaytgand 4 354 nafar fuqarodan 3 255 nafarining bandligi ta'minlandi.

● FAOLIYAT

Tumanda aholining daromadini oshirish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 061 nafar fuqaroga 27 milliard 947 million so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. 413 nafar fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalarini o'zlashtirdi.

Tumanda investitsiyalarni mutanosib ravishda joylashtirish, iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga turtki beradigan loyihalarni amalga oshirishda ham bir qator islohotlar amalga oshirilmog'na. Jumladan, 2024-yilga mo'ljallangan hududiy investitsiya dasturiga muvofiq, qiymati 514,8 milliard so'mlik 20 ta loyihani ishga tushirish, 378 ta yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan bo'lib, amalda qiymati 305,1 milliard so'mlik 19 ta hududiy loyiha ishga tushirilib, 276 ta ish o'rinlari yaratildi. Misollarga murojaat qilsak, "GOLD-STROY-PLUS" MCHJ tomonidan umumiy qiymati 1,5 milliard so'mlik Innovatsion maktabgacha ta'lim tashkilotini foydalanishga topshirilishi natijasida 10 ta yangi ish o'ri yaratildi.

Tashqi savdo aylanmasida ham sezilarli darajada o'sishga erishdik. Jumladan, 7,3 million AQSH dollarilik mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, rejaga nisbatan 80 foizga bajarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 154 foizga ortgan. Olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda kelgusi 5 yilda amalga oshirishimiz zarur bo'lgan bir qator amaliy ishlarni ham rejalashtirib olganmiz.

"2025-2029-yillarda Oltinsoy tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va tuman aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash to'g'risida"gi kompleks chora-tadbirlar rejasiga belgilab olindi. Rejaga muvofiq, jami 60 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi natijasida 978 milliard so'm jalb etiladi hamda 840 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Oltinsoy tumanining xorijiy va mahalliy investorlar uchun jozibadorligi oshiriladi, zamonaviy obyektlar quriladi, tumanni me'moriy qiyofasi va aholining turmush darajasi yaxshilanadi. Bu rejalarimiz pirovardida xalqimizning turmush tarzi yanada yaxshilanadi.

2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimizda o'tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi tom ma'nodagi tarixiy voqea bo'lib, unda xalqimizning oliy maqsadi — Yangi O'zbekistonni barpo etish orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topdi.

OTA-ONA MAJBURIYATI VA DAVLAT BURCHI

MUTAXASSIS MINBARI

Yaqin yetti-sakkiz yil ichida mamlakatimiz erishgan yutuqlar, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklolarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit borasidagi muammolar hal qilingani, qo'shni xalqlar bilan oramizdagi munosabatlarning tiklanishi va shu kabi qator ijobiy sa'y-harakatlarining ortga qaytmaligini konstitutsiyaviy himoyasi ta'minlandi.

Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish borasida davlat o'ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan



bog'liq Konstitutsiyadagi normalar uch barobar ko'paytirildi. Misol uchun, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi, albatta.

Aholining kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi, umuman, aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4

barobar oshirilganligini o'zi aholimiz sog'lig'ini ishonchli muhofaza etish hamda onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Yana bir muhim yangilik — davlat oilaning to'laonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyaviy mustahkamlandi. Ushbu normaning kiritilishi jamiyatimizda oila mustahkamligi va

mo'tabarligini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi. Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta'lim berish, barkamol voyaga yetkazish ham ota-ona majburiyati hisoblanadi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida belgilandi.

Bugun yangilangan Konstitutsiyamizning norma va prinsiplarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin.

Nargiza SHIRINOVA,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti

YO'G'E?!

Jinoyat ishlari bo'yicha Termiz tuman sudining ochiq majlisida O'zbekiston Respublikasi MJTKning tegishli moddasi bilan huquqbuzarlik sodir etgan Ibrohim Jovliyevga (ism-familiyalari o'zgartirilgan) oid ish ko'rib chiqildi.

Ibrohimning o'ziga tegishli bo'lgan telefonida yurtemizga olib kirish, tarqatish va saqlash taqiqlangan diniy mazmundagi videoma'ruzalarni qonunga xilof ravishda tarqatish maqsadida saqlab kelayotganligi, shu yilning 17-oktyabr kuni huquqni muhofaza

qiluvchi idoralar xodimlari tomonidan tekshirilganda fosh qilingan. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan I. Jovliyevga sud qarori bilan bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari, ya'ni 7 million

500 ming so'm miqdorida jarima jazosi tayinlandi. Zora, olib borilgan tushuntirish ishlari va qo'llanilgan jazo chorasi huquqbuzarning tegishli xulosa chiqarishiga sabab bo'lsa...

E. MAMARASULOV,
J. JAVLATOV,
CH. SHOTURAYEV,
viloyat IIB mas'ul xodimlari

Yurtni yayov kezsangiz-da, ot yoki ulovda aylansangiz ham ravon yo'l joningizga ora kiradi. Notekis, o'nqir-cho'nqir bo'lsa, yo'lingiz unmaydi, yo'l bo'yi aziyat chekib, dilingiz ranjiydi.

Surxon tarafda uzog'imizni yaqin, mushkulimizni oson qiladigan avtomobil yo'llari vohaning og'riqli nuqtasi bo'lib qolgan edi. Mahalliy aholi mehmonlardan "Surxondaryo chegarasiga kirishimiz bilan yo'l azobi qiyonadi", "E, bu yo'llaringizda yurib bo'lmas ekan-ku?", "Surxonning yo'lini bunaqa tasavvur qilmaganman" kabi ilmoqli va ayni paytda dangal gaplarni ko'p eshitgan. Bu fikrlardan andak xijolat cheksa-da, lo'nda qilib,

infratuzilmasini yaxshilash uchun mamlakat va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 579,1 milliard so'm evaziga 733,2 kilometr avtomobil yo'li qurilib, rekonstruksiya qilindi. Jumladan, 359,4 kilometr umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'lini qurish, ta'mirlash va saqlash uchun 313,7 milliard so'mlik ish bajarildi. Investitsiya dasturi doirasida 6,4 kilometr yo'lga 78,5 milliard so'm, to'la ta'mirlash dasturiga asosan 12 kilometr yo'lga 26,8 milliard so'm, joriy

Darband qishlog'idan boshlanuvchi "Darband — Denov" yo'nalishi bo'yicha 4R105 avtomobil yo'li tog' va adirlıklardan o'tgan. Yirik loyihani amalga oshirish chog'ida yo'lga sement-beton qoplamasi yotqizish barobarida 26 ta ko'priklari, ikkita yo'l o'tkazgichi, 114 ta suv quvuri, ikkita avtotransport vositalarining vazn va hajm parametrlarini qayd etuvchi nazorat posti barpo etish rejalashtirilgan. Loyihaning umumiy qiymati 147,6 million AQSH dollarini tashkil etadi.

YANGILANAYOTGAN SURXONGA YANGI YO'LLAR YARASHADI

● PREZIDENT TASHABBUSI



"shunisiga ham shukur" deya javob bergan.

Adashmayotgan bo'lsam, mamlakatimizda "Lacetti" yengil mashinasi endi ishlab chiqarilgan yillar edi. Poytaxtdan xizmat safari bilan kelgan hamkasblarimni kechki payt Qarshi tomon kuzatishga to'g'ri keldi. Maslahatlashib, mehmonlarni yangi ulovda ehtib qo'yadigan bo'ldik. Qosh qorayadigan yo'lga chiqishdi. Ertasi kuni ulardan biriga qo'ng'iroq qilib, qanday yetib olishgani bilan qiziqdim.

— Xalqimizda: "O'lis yo'l o'tni, og'ir yo'l sabr-u qanoatni sinaydi", degan maqol bor, — dedi hamkasbim birpas suhbatlashganimizdan so'ng. — Hartugul, haydovchi tajribali ekan. Qorong'ida ham yo'ldagi chuqurliklarni terib haydadi. Lekin, ularning ikkitasini aylanib o'tsa, bittasiga tushmaslikning ham iloji yo'q edi. Yo'llaringiz yangi "Lacetti"ni ham, bizni ham sinovdan o'tkazdi. Toki bu yo'llar soz bo'lmasa, yengil mashinada Surxondaryoga borishga yuragim dov bermasa kerak.

Surxondaryoliklar azaldan boriga shukur, yo'g'iga qanoat qilib yashaydi. Atrofdagi birorta bunyodkorlik ishi boshlanasa, hayotini o'zgartiradigan yangilik bo'lsa, quvonadi. Shukurimizning tagida, qanoatimiz qo'ynida baraka bor ekan, deya suyunadi. Ana shu yangilanishdan faxr hissini tuyib yuradi.

Bugun ulkan qurilish maydoniga aylangan xalqaro avtomobil yo'llari va ichki yo'llar tubdan rekonstruksiya qilinayotgan. Bunday ulkan ishlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Buning uchun katta mablag' sarflanib, yo'isozlarning mashaqqatli mehnati evaziga keng, ravon yo'llar qurilmog'na. Odamlarning hayotidan rozi bo'lib yashashga munosib, zamonaviy yo'l infratuzilmasi shakllanmog'na.

Davlatimiz rahbari 2022-yil 4-aprelda "Osiyo taraqqiyoti banki ishtirokida avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini qabul qilgan edi. Ayni paytda mazkur hujjatga muvofiq janubdagi vohaning 4R105 "Darband — Boysun — Elbayon" avtomobil yo'lining 5-70-kilometr qismi va 4R100 "Manguzar — Jarqo'rg'on — Bandixon — Oltinsoy — Denov" avtomobil yo'lining 128-174-kilometr qismini rekonstruksiya qilinmog'na. Yirik loyiha uchun o'tkazilgan tender savdolarida qardosh Ozarbojjonning "Lankaran Yol Tikinti" aksiyadorlik jamiyati g'olib bo'ldi. Uzunligi 111 kilometr yo'lining qariyb 108 kilometr sement-beton qoplamasi bilan rekonstruksiya qilinayotir. Boysun tumanidagi

ta'mirlash, saqlash, ko'kalamzorlashtirish hamda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun 310,1 kilometr yo'lga 208,5 milliard so'm mablag' sarflandi. Mahalliy hokimliklar balansidagi 423,1 kilometr uzunlikdagi ichki avtomobil yo'lini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash uchun 265,3 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

Viloyatning 8 ta tumanidan o'tuvchi 4R100 "Manguzar q. — Jarqo'rg'on sh. — Bandixon q. — Oltinsoy sh. — Denov sh." avtomobil yo'li vohaning eng asosiy transport koridorini sanaladi. Ta'mirlalab, muddatini o'tab bo'lgan mazkur yo'lining 11-126-kilometr qismi hamda Muzrabot tumanining Tong yulduzi mahallasidan o'tuvchi 4R110 "Sherobod sh. — Poshxurt q. — Oqtosh q. — Muzrabot q." avtomobil yo'lining 72-82-kilometrlar 4K626 "Sherobod sh. — Boldir q." avtomobil yo'lining 21-29-kilometrlari ham respublika byudjeti mablag'i hisobidan zamonaviy qiyofada ta'mirlanib, yo'lovchilar uchun barcha qulaylik yaratilmog'na. Termiz shahridagi A. Navoiy, At-Termiziy, Iso at-Termiziy nomli va Yangi O'zbekiston ko'chalari, Denov shahridagi Sh. Rashidov nomli va Boysun ko'chalari tubdan rekonstruksiya qilinayotir. Bunday ulkan ishlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Buning uchun katta mablag' sarflanib, yo'isozlarning mashaqqatli mehnati evaziga keng, ravon yo'llar qurilmog'na. Odamlarning hayotidan rozi bo'lib yashashga munosib, zamonaviy yo'l infratuzilmasi shakllanmog'na.

Davlatimiz rahbari 2022-yil 4-aprelda "Osiyo taraqqiyoti banki ishtirokida avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini qabul qilgan edi. Ayni paytda mazkur hujjatga muvofiq janubdagi vohaning 4R105 "Darband — Boysun — Elbayon" avtomobil yo'lining 5-70-kilometr qismi va 4R100 "Manguzar — Jarqo'rg'on — Bandixon — Oltinsoy — Denov" avtomobil yo'lining 128-174-kilometr qismini rekonstruksiya qilinmog'na. Yirik loyiha uchun o'tkazilgan tender savdolarida qardosh Ozarbojjonning "Lankaran Yol Tikinti" aksiyadorlik jamiyati g'olib bo'ldi. Uzunligi 111 kilometr yo'lining qariyb 108 kilometr sement-beton qoplamasi bilan rekonstruksiya qilinayotir. Boysun tumanidagi

Boysun tog'lari bag'rida yirik bunyodkorlik maydoniga aylangan yo'l qurilishida 300 ga yaqin texnika va 400 dan ziyod ishchi mehnat qilmog'na. Yo'lni tez, sifatli barpo etish uchun xorijlik mutaxassislar ham jalb etilgan. Koreyaning "DONGSUNG Engineering" kompaniyasi muhandis-konsultantlari va o'zbekistonlik tajribali mutaxassislar qurilish sifatini nazorat qilmog'na. — Shu kungacha

yo'isozlar 25,7 million AQSH dollarilik mablag'ni o'zlashtirib, 5,3 million metr-kub hajmdagi yer ishlari, 81,3 ming metr-kvadrat asfalt ko'chirish, 5,3 kilometr muhandislik tarmoqlarini ko'chirish ishlari yakunlandi, — deydi nazoratchi Bobomurod Allaberdiyev. — Loyihaning 28,6 kilometr qismida yer ishlari tugatilib, birinchi va ikkinchi qatlam tosh-shag'al yotqizish yakunlangan. 6,6 kilometr masofadagi yo'lga ishlar to'liq yakunlanib, beton yotqizilmog'na. Loyihani amalga oshirishda tezkorlik bilan birga sifatiga ham alohida e'tibor berilayotir. Sement-beton qoplamali yo'lning eni hududning joylashuvidan kelib chiqib, 9 metrdan 19 metrgacha uzunlikda bo'ladi. Keng, ravon yo'lni barpo etish uchun yo'l o'tadigan qiyaliklar kengaytirilib, tekislanmog'na.

Tosh-shag'al aralashmasi yotqizilib, mustahkamlanayotir. Mutaxassislar viloyatda qurilayotgan sement-beton qoplamali yo'lning asfalt to'shalgan yo'lga nisbatan uzoq muddat ta'mirlash xizmat qilishini ta'kidlaydi. Yog'ingarchilik, yozdagi issiq harorat va og'ir yukli avtomobillar asfalt yo'lni tez ishdan chiqarishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, sement-beton qoplamali yo'l chorak asrdan ko'proq benuqson xizmat qiladi. Buning uchun qorishmaga betonning chidamligini oshiradigan birikmalar ham qo'shiladi. Tosh-shag'al, tuproq, sement kabi mahsulotlar bosh pudratchi laboratoriyasida ham ko'rikdan o'tkaziladi.

Yo'lning asosiy ishlari yakunlangach, sement-beton qoplamasi yotqizish boshlanadi, — deydi "Lankaran Yol Tikinti" aksiyadorlik jamiyati menejeri o'rinbosari Fikrat Shodmon o'g'li. — To'shalgan qoplamasi bo'yi 27 santimetrga qo'shiladi. Beton qorishmasi maxsus texnika bilan to'shaladi. U bir ish kunida ikki kilometr masofaga qariyb besh ming kub beton yotqizish quvvatiga ega. Qurilish-rekonstruksiya ishlari Koreya, Qozog'iston, Gruziya kabi davlatlarning

kilometr ga yaqinlashtiradi. Mustahkam, ravon yo'l mazzalariga bexavotir yetib olishida qulay imkoniyat yaratadi. Shijoatkor quruvchilar bu yo'lning Boysun tumani markazigacha bo'lgan dastlabki qismini kelgusi yil foydalanishga topshirishni rejalashtirmog'na.

Viloyatda yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirib, aholiga munosib hayot tarzini yaratish uchun ichki yo'llar holatini yaxshilash va ulardan foydalanish sifatini oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmog'na. Bu yo'nalishda ham maxsus loyiha ishlab chiqilgan. Shunga ko'ra, Bandixon, Boysun, Denov, Qumqo'rg'on, Oltinsoy tumanlaridagi 18 ta mahallaning 28 ta ko'chasida sement-beton qoplamali yo'l qurilishi boshlangan. Bu jarayonda qariyb 53 kilometr uzunlikdagi ichki yo'larga sement-beton qoplamasi yotqizilib, mustahkam, ravon yo'llar qurilmog'na.

Viloyatda yo'isozlarning bunyodkorlik ishlari bilan tanishish jarayonida bandixonlik Bahriiddin Xursanov bilan suhbatlashib qoldik. Rekonstruksiya qilinayotgan yo'l sifati va yaratilayotgan qulayliklar haqida ancha gurgunglashdik.

— Bunday yo'llarda avtomobil boshqarish biz uchun ushalmas orzu bo'lib tuyular edi, — deydi Bahriiddin Xursanov. — Qarang, oynadek tekis yo'l barpo etilmog'na. Har safar adirlıklarda yangi qurilayotgan shu yo'l yonidan o'tayotganimda beixtiriy quvonib ketaman. Bu quvonch menga o'zgacha shijoat ulashadi. Yangilanayotgan Surxondaryomizga yangi yo'llar uzukka ko'z qo'ygandek yarashayotganidan faxr hissini tuyaman.

Ha, viloyatda olib borilayotgan bunday ulkan ishlar sabr-u qanoatli Surxon elining asriy orzu-istaklarini ro'yobga chiqarib, yo'lovchilarning keng, ravon yo'llarda erkin harakatlanishida qulay muhit yaratayotir. Bu yo'llardan yilning to'rt faslida ham Boysun orqali vohaning boshqa tumanlariga o'tish yoki yurtemizning boshqa hududlariga borish o'ziga zavq ulashadigan yangi davr kelayotganidan darak berayotir. Bularning barchasi mamlakatimizda inson qadri ulug'lashga, odamlarning tinch, farovon va to'kin hayotini ta'minlashga qaratilayotgan islohotlarning amaldagi ifodasidir.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV

TABIAT ZARRANING HAM QADRINI BILADI...

DOLZARB MAVZU



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri — ekologik muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq. Bir necha yillardan buyon yurtimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umumilliy loyihasi aynan ana shunday masalalarni bartaraf etishga qaratilgan. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining O'rmonlarni va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va "Yashil makon" umumilliy loyihasini tashkillashtirish sho'basini boshlig'i Rustam ABDURAHMANOV bilan bo'lgan suhbatimiz ayni mavzu yuzasidan kechdi.

— Rustam Rahmatullayevich, keyingi davrlarda insoniyat tabiat qonunlariga qarshi faoliyatni kuchaytirib yubordi, shekilli, dunyo bo'ylab ekologik muhit tobora yomonlasha boshladi. Shu bois, yuzaga kelgan ekologik muammolarni jahon miqyosida bartaraf etishga qaratilgan zalvarli loyihalarni ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, bizning yurtimizda ham bir necha yillardan buyon "Yashil makon" umumilliy loyihasi asosida talaygina ibratli ishlar qilinmoqda. Chunki bu loyihadagi atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, hatto chekka qishloqlargacha toza ichimlik suvi yetkazib berish kabi dolzarb masalalar qamrab olingan. Aytgunchi, vohamizda ekologiyani sog'lomlashtirish, atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish maqsadida olib borilayotgan ishlar nechog'lik samarali bo'lyapti?

— Hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Yashil makon" umumilliy loyihasi, haqiqatan ham, butun yurtimiz bo'ylab toza ekologik muhitni yaratishga qaratilgan. Ushbu loyiha doirasidagi ishlar bizning viloyatimizda ham uyushqoqlik bilan, aniq maqsadlar asosida olib borilayotir. Boshqacha aytganda, vohamiz odamlari ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etish orqali xalqimizning turmush farovonligini ta'minlashga o'zlarining munosib ulushini qo'shmoqdalar. O'zbekistonimizda yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlari hamda qalamchalar ekish, shu orqali mamlakatimizdagi yashillikni 8 foizdan 30 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Agar Surxon vohasida ekologiya, atrof-muhitni muhofazasi bilan bog'liq ishlar ko'lamiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu qutlug' rejalar ko'ngildagidek ekanligini ko'rishimiz mumkin.

— Gapingizni bo'lganim uchun uzr. Keyingi bir yil ichida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida aniq tasavvur beruvchi misollar keltirib o'tsangiz, yaxshi bo'lardi...

— Ma'qul. Avvalo, shuni aytib o'tayki, Siz so'z yuritayotgan "Yashil makon" umumilliy loyihasi asosida 2023-yilning bahor va kuz oylarida viloyatimiz hududida manzarali hamda mevali daraxtlar, turli buta ko'chatlari ekishni mavjud

sharoit hamda imkoniyatlardan kelib chiqib, aniq rejalashtirib olganmiz. Mammuniyat bilan qayd etmoqchimanki, birgina joriy yilning bahorgi ko'chat ekish mavsumida viloyatimiz bo'yicha jami 10 million 25 ming tupdan ko'proq ko'chat ekish rejalashtirilgan edi. Mavsum so'ngida olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra, amalda yerga qadalgan ko'chat va qalamchalar soni 10 million 707 mingdan oshib ketdi. Bu — ko'chat ekish rejasi bahorgi mavsum davomida 108,39 foizga uddalandi, deganidir. Boya aytganimgiday, ko'chat ekish ishlari kuz oylarida ham uyushqoqlik bilan olib boriladi. Masalan, men so'z yuritayotgan 2023-yilning kuz oylarida viloyat miqyosida 6 million 800 ming tupdan ko'proq ko'chat ekish ko'zda tutilgan edi. Bu borada ham ko'rsatkich jihatidan o'sishga erishildi. Ya'ni, vohamiz bo'ylab jami 6 million 954 ming 71 tup turli ko'chatlar ekildi. Bu — ko'zlangan reja 101,87 foizga uddalanganligidan dalolatdir.

— Agar siz keltirayotgan raqamlarga tuman va shaharlar kesimida qaraydigan bo'lsak, 2023-yilning bahorgi-kuzgi ko'chat ekish mavsumida viloyatimizning qaysi tuman yoki shahrida ko'rsatkichlar nisbatan yuqori bo'ldi?

— Ko'rsatkichlarning yuqori yoki nisbatan pastroq bo'lishi hududning kengligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, bu haqda so'zlaganda, birinchi galda ekilgan nihollar soni va ularning turiga e'tibor qaratish zarur. So'z yuritayotganimiz joriy yil davomida belgilangan reja Jarqo'rg'on, Denov, Oltinsoy tumanlarida boshqa tumanlarga qaraganda ko'proq uddalangan. Boshqa tuman va shaharlarda esa reja 100 foizga bajarilishiga erishildi. Bu borada yana bir muhim jihatlarni eslatib o'tishni istar edim. Masalan, Uzun, Sariosiyo, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Boysun tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan ko'proq nihol ekildi.

— Hozircha har bir mavsumda vohamiz zaminiga qadalayotgan nihollar haqida to'xtalib, ular asosan manzarali hamda mevali daraxtlar, buta ko'chatlari ekanligini ta'kidlab o'taymiz. Lekin "Yashil makon" umumilliy loyihasida ko'chat ekish ishlari keng qamrov bilan olib borilishi nazarda tutilgan, shekilli... Bu savolni sanoatbop yoki qurilishbop daraxtlarga aylanadigan ko'chatlar ekib, parvarishlashga e'tibor qandayligini bilish uchun so'rayapman.

— Sizni tushundim. Keling, bitta misol keltirib o'tay. Viloyatimizda yog'och mahsulotlari tayyorlashda asqatadigan 155 ming dona tez o'suvchi "terak" va "pavlovniya" daraxt ko'chatlari plantatsiya shaklida ekildi. Chunki bu daraxt yog'ochi yengil, mustahkam, iqlim o'zgarishlariga juda bardoshli, shu bilan birga yumshoq hamda egilish va burilishga o'ta

chidamlidir. Har qanday yog'och turlari orasida vazn nisbati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega. Surxondaryoda ularni plantatsiya shaklida ekib, parvarishlash ishlari boshlanishiga turtki bergan sabablardan yana biri, uning yog'ochidan tayyorlangan mahsulotlar ob-havo sharoitlarida ham o'z shakli va hajmini o'zgartirmaydi, chirishi juda qiyin kechadi. Demochimanki, vohamizda bugungi kunda mahalliy ahamiyat xususiyatlariga ega daraxtlar bilan bir qatorda, ana shunday istiqbolli, noyob daraxt ko'chatlari ham parvarishlanmoqda. Ushbu fikringa yana shuni ham qo'shimcha qilishim mumkinki, Surxon vohasida nafaqat qurilishbop yoki atrofga yashillik ulashuvchi, ekologik muhitni yaxshilashga ham xizmat qiluvchi manzarali daraxtlar, balki mevali daraxt ko'chatlari ekishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, bundan bir yil avval Sherobod tumanida 1 ming 650 gektar maydonga har bir tupi 5 ming so'm turadigan 6 milliard so'mlik 1 million 221 ming tup anor ko'chati ekilgan. Ushbu ko'chatlarni parvarishlashda asqatadigan sug'orish tizimini joriy etish uchun 374 million so'm mablag' hisobiga 22 ta artezian quduqlar qazilgan. Xuddi shuningdek, Qiziriq tumanidagi "Buyuk kelajak" mahallasida "Green Garden" MCHJ tomonidan 93 gektar maydonga Farg'ona viloyatidan olib kelingan 50 mingta har bir donasi 15 AQSH dollari turadigan "Vonderkop" navli ertapishar o'rik ko'chatlari ekilgan. Bu noyob ko'chatlarni talab darajasida parvarishlash maqsadida tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgandi. Shukrki, sa'y-harakatlarimiz besamar ketmadi. O'z vaqtida ekilgan nihollarning deyarli barchasi tomir yoyib, yashnab turibdi. Bu ishlarimiz berayotgan samaralar haqida bilmoqchi bo'lsangiz, yaqinda Sherobodda bo'lib o'tgan "Anor sayli"ni bir eslang!

— Bu tadbirlarning barchasi xayrli, albatta. Ammo, qilingan ishlar kelajakda yaxshi samara berishi uchun ertangi kun tadorigini bugun ko'rmoq kerak, degan gaplar ham bor, nima dedingiz?

— Tabiat zarraning ham qadrini biladi, deydi dono xalqimiz. Haqiqatan, bugun inson tomonidan ona zaminni yanada yashnatish uchun amalga oshirilayotgan ishlar asl yaratuvchi bo'lgan Tabiat saxovati oldida misoli bir zarradek gap. Shunday bo'lsa-da, savolingiz zamiridagi ma'noni to'g'ri tushungan kishi sifatida shunday javob bera qolay: Viloyatimizda "Yashil makon" umumilliy loyihasini hayotga tatbiq etish uchun yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, ertangi kunni ko'zlab, yana bir qator yo'nalishlarda samarali ishlar qilinmoqda. Masalan, bugungacha davlat o'rmon xo'jaligi fondiga kirmaydigan yerlardagi jami 526 ming tup daraxtlar xatlovdan o'tkazilib, elektron bazaga kiritildi. Shuningdek, 142 tup 100 yoshdan oshgan daraxtlarga tabiat yodgorligi maqomi berildi. O'rmon xo'jaligida esa 14,9 million dona ko'chat va nihollar parvarishlanmoqda. Bu ishlarimiz, yuqorida aytganimgdek, ona Tabiat ulug'vorligi oldida bir zarra misol bo'lsa-da, kelajakda u yurtimizga yashil libos

kiydirishda zalvarli hissa bo'lib qo'shiladi, degan umiddaman.

— Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "Yashil makon" umumilliy loyihasini amalga oshirishda ko'chat yetishtirishga ixtisoslashgan institutlar, xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda aholi xonadonlarida yetishtiriladigan ko'chatlar ham muhim ahamiyat kasb etarkan. Bu yo'nalishda ham ish olib boryapsizlarmi? Agar shunday bo'lsa, u qanday samara beryapti?

— Surxondaryoliklar hozirgi kunda siz aytayotgan manbalar asosida bu paytga qadar ekilgan 26 milliondan ortiq ko'chatlarni mehr bilan parvarishlashmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam, birgina "Yo'lko'kalam" davlat unitar korxonasining o'zida yiliga 180 ming tup ko'chat yetishtirilmoqda. Ayni paytda, viloyatimizda sifatli yog'och olinadigan daraxtlar yetishtirish sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda hozirgi kunda tez o'suvchi 1 million 200 ming tup terak va pavlovniya ko'chatlari yetishtirilayotganligini ta'kidlab o'tmoqchiman. Ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari haqida eslatyapsiz. Aytishim mumkinki, bu boradagi ishlarimiz ham yomon ketayotgani yo'q. Masalan, tadbirkorlik subyektlari hamda viloyat o'rmon xo'jaligi tomonidan Surxon zaminida yetishtirilayotgan ko'chatlar vohamizdan tashqari, boshqa hududlarga ham ulashilmoqda. Masalan, keyingi ikki-uch yil davomida 5 million 300 ming tupdan ortiq mevali hamda manzarali daraxt ko'chatlarini qo'shni viloyatlarga yetkazib berishga ulgurdi. Chunki "Yashil makon" umumilliy loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan ekilayotgan ko'chatlarning hisobini yuritish uchun "Yashil makon" (yashilmakon.eco) elektron bazasi (platforma) yaratilgan bo'lib, u muntazam ishlab turibdi.

— Tabiiyki, bunday keng ko'lamdagi ishlarni olib borishda ba'zan kutilmaganda tabiiy to'siqlarga ham duch kelinadi. Masalan, Surxondaryoda bunday to'siq yoki muammo "afg'on shamoli" tufayli yuzaga keladi. Bu shamol esishi oqibatida atmosfera havosiga mayda qumli chang, tuzlar ko'tariladi. Bu olib borilayotgan ishlar samarasini kamaytirmayaptimi, ko'lamini orttirishga xalaqit bermayaptimi?

— Axir, "Yashil makon" loyihasi doirasida atrof-muhitni avaylab-asrash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarning asl maqsadi ham ana shunday tabiiy hodisalarning ekologik muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan-ku! Haqiqatan ham, viloyatimizning ayrim hududlarida, xususan, Termiz shahri, shuningdek, Termiz, Angor, Muzrabot, qisman Jarqo'rg'on tumanlarida ushbu shamolning salbiy

ta'siri ko'proq kuzatilishi bor gap. Agar gidrometeorologiya boshqarmasidan olingan ma'lumotlarga asosanib aytadigan bo'lsam, 2020-yilda 74 marotaba kuchli "afg'on shamoli" esishi kuzatilgan. 2021-yilda esa xuddi shunday shamol 43 marotaba esib, tezligi 15-24 metrga yetganligi qayd etilgan. Yoki 2022-yilda 31 marotaba kutilmagan shamol esishi hodisasi ro'y bergan. Keltirilgan ushbu ma'lumotlardan ham ko'rinish turibdiki, "afg'on shamoli" nomi bilan mashhur bu tabiiy hodisaning ro'y berish holatlari yildan-yilga kamayib bormoqda. Bu — "Yashil makon" loyihasi amalda atrof-muhitga ijobiy ta'sir etayotganligini, iqlimiy muhit yaxshilanib borayotganini anglatadi.

— Shu o'rinda yana bir masalaga oydinlik kiritib, yaxshi bo'lardi. Odatda, ekilgan daraxt ko'chatlari va butalarning hisobi yuritiladi. Aslida esa, yerga qadalgan ko'chatlarning ko'pi yaxshi qarov bo'lmagan uchun qurib ketadi. Siz hozir keltirgan ma'lumotlar amalda ekilganlarga taalluqlimi yoki saqlanib qolganlarigami?

— Men bejiz yuqorida ortiqcha ekilgan ko'chatlar va foizlar haqida, daraxt ekish ikki mavsumda olib borilishi to'g'risida to'xtalmadim. Bahorda ekilgan ko'chatlar hisobi kuzgi mavsumda chiqarilayotgani uchun shunday qildim. Mavsumlar oralig'idagi vaqt mobaynida ekilgan daraxtlarning qanchasi qurib ketdi, qanchasi ko'kardi, bu holat, albatta, inobatga olinadi, shuning uchun ham sizga kuzgi emas, bahorgi ko'chat ekish mavsumi natijalari to'g'risida aniq ma'lumot berdim.

— Suhbatimiz avvalida Yer sayyorasida inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida bizni o'rab turgan atrof-muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganini aytib o'tgandim. Demochimanki, tabiiy muhit holatining inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz mavjudotlarga antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy hamda umumjahon miqyosidagi ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Shu fikrdan kelib chiqib, so'ramoqchi edim: agar imkon tug'ilib qolsa, tabiatni asrashning nechog'lik muhimligi borasida vohadoshlarimizga nima degan bo'lardingiz?

— Yaxshi bilasizki, mamlakatimizda atrof-muhit muammolarini o'rganish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini, atmosfera havosi va tabiiy resurslarni asrash hamda chiqindi muammolarini bartaraf etishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilyapti.

Tabiatni asrash, uni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish, jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongning shakllantirish nafaqat soha xodimlarining ishi, balki har insonning ona tabiatga bo'lgan farzandlik burchidir. Agar ana shu sharafli burchni unutmamak, uni doimo his etib tursak, nafaqat o'z Vatanimizni, balki butun olamni yashillikka burkashdek ezgu ishlarga munosib hissa qo'shgan bo'lamiz. Unutmaylikki, tabiatga qilingan zararcha yaxshilik, ertaga tog' kabi saxovat bo'lib qaytadi.

— Rustam Rahmatullayevich, siz orqali soha xodimlariga olib borayotgan xayrli hamda ezgu ishlarida muvaffaqiyat yor bo'lmog'ini tilab qolamiz!

To'ra QOBILOV
suhbatlashdi.